

MAQOM SAN'ATI DURDONALARI

G'ulomqodirova Elnora Dilshodjon qizi

GulDU talabasi, Guliston. O'zbekiston

Telefon:+998916867756

Ilmiy rahbar: Sultonov Abdurahim Abdurahmonovich

Asrlar davomida buyuk xalqimiz e'zozlab, kuylab, tinglab, ko'zlariga surib kelayotganimiz maqom san'ati durdonalari - o'zbek va tojik xalqining mumtoz musiqa san'atining tamal toshini qo'ygan bobokalonlarimiz, ustoz hofiz va bastakorlar, xonanda, sozanda, hamda musiqa ilmining bilimdonlarining betakror yaratilari, tinimsiz ijodiy izlanishlari natijasida shakllanib kelgan. Milliy musiqa san'atimiz “Oltin sandig'i”ga IX-X asrlardan boshlab asos solgan buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buzalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg».

Sobiq Ittifoq hukmronligi davrida, O'zbekistonda, boshqa sohalar singari barcha musiqiy o'quv muassasalarida, tariximizga, adabiyotimizga va o'zbek milliy musiqa san'atimizga munosabat, e'tibor juda past darajada bo'lgan. Buyuk allomalimiz Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimizning ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumot va risolalari o'rniga darsliklarga

ko'proq Yevropa va rus musiqa san'ati vakillari, I. S. Bax, L.V. Betxoven, V.A. Motsart, P. I. Chaykovskiy va boshqa kompozitorlarning hayoti va ijodini o'rganishga oid



ma'lumotlar kiritilgan. “O'zbek musiqasi tarixi” fani darsligiga juda oz ma'lumotlar kiritilgan va shuncha oz soatlar berilgan.

To'g'ri Yevropaning bu buyuk kompozitorlarini, ular ijod qilgan daho musiqiy asarlarni butun jahon musiqashunoslari tan olgan. Bu to'g'risida hech qanday baxs – munozaraga o'rin yo'q. Ammo, o'zimizning bobokalonlarimizning musiqa san'ati ilmi, milliy cholg'u sozlarimizning yaratilishi, ijrochilik uslublari haqida yozgan asarlari ma'lumotlari yaqin kunlarga ko'pchilik shu sohaning mutaxassislarining ham nazaridan yiroqda edi. O'zbek musiqa san'ati sohasida ham buyuk allomalarimiz yangi kashfiyotlar qilganligi, musiqa nazariyasi va cholg'u sozlari yaratilishi va tuzilishi borasida ulkan natijalarga erishganligi oddiy holday qabul qilinadi. Birgina Abu Nasr al Farobiyning X asrda yozgan “Katta musiqa kitobi” musiqa nazariyasiga oid asarida bir dunyo ma'lumotlar borligi bunga misol bo'la oladi. Farobiy X asrda musiqada nota yozuvini kashf qilgan. Bu yangilik Yevropada XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning hammamizga tanish bo'lgan “O'zbekim” qasidasidagi misralar yodimizga keladi.

Menga Pushkin bir jahonu, menga Bayron bir jahon,
Lek, Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon o'zbekim”.

Yoki, yana bir elimizning suyuklisi, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “O'zbekiston – Vatanim manim” she'ridagi

Amerika – sehdli diyor, uxlari edi Kolumb ham hali.

Dengiz ortin yoritdi ilk bor, Beruniyning aql mash'ali.

Kolumbda bor alamim manim – O'zbekiston - Vatanim manim”.

O'tgan asrning 70 – yillarida yozilgan bu “mumtoz” asarlar bizga milliy Sobiq Ittifoq hukmronligi davrida, O'zbekistonda, boshqa sohalar singari barcha musiqiy o'quv muassasalarida, tariximizga, adabiyotimizga va o'zbek milliy musiqa san'atimizga munosabat, e'tibor juda past darajada bo'lgan. Buyuk allomalarimiz Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiyy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimizning ijrochilik

san'ati, musiqa ilmi va tarixi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumot va risolalari o'rniga darsliklarga ko'proq Yevropa va rus musiqa san'ati vakillari, I. S. Bax, L.V. Betxoven, V.A. Motsart, P. I. Chaykovskiy va boshqa kompozitorlarning hayoti va ijodini o'rganishga oid ma'lumotlar kiritilgan. “O'zbek musiqasi tarixi” fani darsligiga juda oz ma'lumotlar kiritilgan va shuncha oz soatlar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. S. Begmatov “Hofizlik san'ati yo'llari“ T., 2007.



2. O. Ibrohimov “Farg’ona- Toshkent maqom yo’llari“ T., 2006.
3. Yunus Rajabiy “Maqomlar masalalari doir“ T., 2006.

